



Political and legal aspects of the relationships between local councils and citizen self-governance bodies

Sanjarbek ABDURAKHMANOV¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

makhalla,
citizens' meetings,
local executive authorities,
reports of the governor,
reports of the heads of
territorial divisions of the
Ministry of Internal Affairs
of the Republic of
Uzbekistan,
convening of citizens'
meetings.

ABSTRACT

This article discusses the importance of the relationship between local councils and civil society institutions in the Republic of Uzbekistan, as well as between towns, villages and auls, which are considered to be bodies of self-government of citizens, as well as neighborhoods in cities, towns, villages and auls, and provides a detailed analysis of the political and legal aspects of these relationships, and puts forward substantiated proposals and recommendations.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp168-173>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mahalliy kengashlar hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy jihatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

mahalla,
fuqarolar yig'inlari,
mahalliy ijroiya hokimiyati,
hokim hisoboti,
O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi hududiy
bo'linmalari rahbarlarining
hisoboti,
fuqarolar yig'ini chaqirilishi.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mahalliy kengashlar va fuqarolik jamiyati instituti hisoblanadigan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari hisoblanadigan shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar o'rtasidagi munosabatlar ahamiyati to'g'risida muhokama yuritilib, ushbu munosabatlarning siyosiy-huquqiy jihatlari atroflicha tahlil qilinib, asoslantirilgan taklif hamda tavsiyalar ilgari surildi.

¹ PhD Student, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

Политико-правовые аспекты взаимоотношений местных советов с органами самоуправления граждан

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

махалля,
сходы граждан,
местные органы
исполнительной власти,
отчеты хокима,
отчеты начальников
территориальных
подразделений МВД
Республики Узбекистан,
созыв сходов граждан.

В статье рассматривается значение взаимоотношений местных советов и институтов гражданского общества в Республике Узбекистан, а также поселков, сел и аулов, являющихся органами самоуправления граждан, а также кварталов в городах, поселках, селах и аулах, дается подробный анализ политико-правовых аспектов этих взаимоотношений, выдвигаются обоснованные предложения и рекомендации.

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mahalliy kengashlar hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlarning tashkiliy asoslarini takomillashtirish hamda mustahkamlash muhimdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2023-yil 11-avgustda Buxoro viloyat xalq deputatlari kengashida bo'lib o'tgan yig'ilishida o'zining haqli e'tirozlarini bildirib o'tdi: "Agar xulosa qilmasanglar, buni zamon ko'tarmaydi. Faqat va faqat kengash, kengash, kengash. Qonunlar nuqtai nazaridan, talab nuqtai nazaridan, "Yangi O'zbekiston" shiori nuqtai nazaridan joylarda kim ishlayotgan bo'lsa, ketishi kerak, menga taklif beringlar. Kengash ovozi baralla xalq ovozi bo'lishi kerak, xalqning dardi bilan yashashi kerak. Kengash qaror qildimi, qonun bo'lishi kerak. Nimaga desangiz, jamiyatimizda sifat nuqtai nazaridan odamlarning talabi o'sib bormoqda". [1]

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida 2-maqсад sifatida xalq deputatlari Kengashlarini hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'g'inga aylantirish uchun xalq deputatlari kengashlarida doimiy asosda faoliyat yurituvchi deputatlar korpusini shakllantirish va ularning vakolatlarini kengaytirish orqali hududiy ijro organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, xalq deputatlari kengashlarining mahallalardagi muammolarni hal qilishdagi rolini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, mahalliy budjetni shakllantirish va nazorat qilish bo'yicha ularning mas'uliyatini kuchaytirish, mahallalarning joylardagi vakillik organlari bilan, xalq deputatlari Kengashlarining Oliy Majlis Senati bilan, hokimliklarning vazirliklar va ularning hududiy bo'linmalari bilan aloqalarini mustahkamlash, mahalliy kengashlarning kotibiyatlari faoliyatini yanada kuchaytirish choralari ko'rish kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan. [2]

Bu esa o'z-o'zidan O'zbekistonda mahalliy kengashlar hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy tahlilini amalga oshirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatib beradi.

MATERIAL VA TADQIQOT USULLARI

O'zbekistonda mahalliy kengashlar hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy tahliliga bog'liq masalalar Z. Isroilova, S. Adilxodjayeva, Sh. Asadov, D. Bekchanov, A. Dadasheva, Sh. Jalilov, G. Ismailova, A. Yo'ldoshev, G. Malikova, A. Mahmudov, S. Muratayev, X. Odilqoriyev, M. Radjabova, X. Ruzmetov, I. Sobirov, A. To'laganov, I. Xamedov, O. Xusanov, A. Babadjanovlar tomonidan, MDH davlatlari miqyosida V. Avseenko, A. Akmalova, G. Atamanchuk, M. Baglay, V. Baranchikov, G. Barabashev, N. Bandar, V. Bocharov, T. Byalkina, O. Kishakovskaya, R. Muxayev, M. Yegorovalar tomonidan, xorijiy mamlakatlarda esa A. Gerbert, M. Jefferi, A. Tompson, U. Donald, V. Smitburg, Jesse Ribbot, Keys Miller Allin Lokner (AQSH), A. Chandler, J. Kingdom, Stiv Parkinson, Rod Latham, Rojer Kemp (Buyuk Britaniya), Karlos Silva Jan Buchek (Shveysariya), Maleka Banu, Siddik Kamal (Bangladesh), Orapin Sopchokchai (Tailand) tomonidan yetarlicha hamda atroflicha o'rganilgan. Shuningdek, ushbu maqolada hujjatlar tahlili, holat o'rganish (case-study), teoretik va nazariy tahlil, komparativ (solishtirma) tahlil, interdisiplinar yondashuv kabi siyosatshunoslik va huquqshunoslik fani metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Avvalo, shuni ta'kidlab o'tish lozimki, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2013-yil 22-apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'RQ-350-son Qonun 3-moddasiga ko'ra, fuqarolar shaharchalarda, qishloqlarda, ovullarda, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi va ovullardagi mahallalarda o'zini o'zi boshqarishga doir o'z konstitutsiyaviy huquqini fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlariga muvofiq fuqarolar yig'inlari (fuqarolar vakillarining yig'ilishlari) orqali amalga oshiradi. [3]

Shuningdek, yuqoridagi Qonun 8-moddasi birinchi qismiga binoan, shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig'inlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridir. [3]

Demak, mahalliy kengashlar hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlar deyilganda, mahalliy kengashlar hamda shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig'inlari o'rtasidagi munosabatlar tushuniladi.

Huquqshunos olim A. Maxmudovning fikriga ko'ra, mahalliy kengashlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini nazorat qilmaydi, aksincha ular bilan ijtimoiy sheriklik tamoyili asosida faoliyat olib boradi. [4]. Ya'ni, yuqoridagi huquqshunos olimning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda mahalliy kengashlar hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlarda bo'ysunish emas, balki ijtimoiy sheriklik tamoyilini qaror topishi muhimdir. Shu bilan birgalikda, professor S.M. Adilxo'jayevanning fikriga ko'ra, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari raislari tegishli tuman va shahar kengashlari sessiyalarida qatnashib, o'z rahbarligidagi hudud ahvoli haqida kengash deputatlariga xabar bilan murojaat qilishi maqsadga muvofiqdir. [5] Ushbu fikrni qo'llab-quvvatlagan holda, shuni ta'kidlash lozimki, mahalliy kengashlar asosiy faoliyat me'zoni o'z hududida joylashgan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga ko'maklashishda namoyon bo'lishi lozim.

Shu bilan birga, mahalliy kengashlar hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlarni ham shartli ravishda ikki xil munosabatlarga, ya'ni, mahalliy kengashlarning fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatidagi ishtiroki hamda o'z navbatida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mahalliy kengashlar faoliyatidagi ishtirokiga oid munosabatlarga ajratishimiz mumkin.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda mahalliy mahalliy kengashlar hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchi, mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni ta'minlashi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonun 1-modda uchinchi qismida xalq deputatlari Kengashi va hokim O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni ta'minlashi belgilab qo'yilgan. [6] Bizning fikrimizcha, ushbu huquqiy normadagi hokimning O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni ta'minlash vakolatini chiqarib tashlash lozim. Chunki, birinchi, O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-860-son Qonun 13-moddasiga binoan, davlat organlarining bir-birini takrorlovchi vakolatlari va vazifalari mavjudligi vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar jumlasiga kiradi. [7] Ikkinchi, mahalliy kengashlar xalq tomonidan to'g'ridan to'g'ri saylanganligi uchun tayinlanadigan organlardan ko'ra saylanadigan organ vazifa hamda vakolatlari ko'proq bo'lishi demokratik tamoyillarga to'g'ri keladi.

Ikkinchi, fuqarolar yig'ini kengashi mahalliy kengash deputatlariga o'z faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashishi belgilanganligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2013-yil 22-apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'RQ-350-son Qonun 13-moddasiga binoan, fuqarolar yig'inining kengashi fuqarolar yig'inining qarorlarini bajarish va fuqarolar yig'inlari oralig'idagi davrda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining joriy faoliyatini amalga oshirish uchun shakllantiriladigan organdir. Shuningdek, yuqoridagi modda uchinchi qismi beshinchi xatboshisiga asosan, fuqarolar yig'inining kengashi xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlariga ularning saylovchilar bilan uchrashuvlarini uyushtirishda, fuqarolarni qabul qilishda, ular o'z saylov okruglarida boshqa vakolatlarini amalga oshirishda ko'maklashadi. [3]

Uchinchi, fuqarolar yig'ini chaqirilishida mahalliy kengashlar tashabbusi majburiylik xususiyatiga egaligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 2013-yil 22-apreldagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'RQ-350-son Qonun 21-modda birinchi qismiga asosan, fuqarolar yig'ini xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin. [3]

To'rtinchi, xalq deputatlari Kengashi tomonidan hokim va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari taklif etilishi mumkinligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonun 25¹-moddaning beshinchi qismiga asosan, viloyat, tuman, shahar hokimining hisobotini eshitishga tegishli hududda joylashgan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillari taklif etilishi mumkin. Shuningdek, yuqoridagi Qonun 25²-moddaning uchinchi qismiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitishga tegishli hududda joylashgan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillari taklif etilishi

mumkin. [6] Bizning fikrimizcha, yuqoridagi siyosiy-huquqiy normada fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari vakillarining taklif etilgan holatda ishtirok etishi emas, balki ularning o'zlari ham xohish bildirganda ishtirok etishini ta'minlab beradigan siyosiy-huquqiy mexanizmni mustahkamlab qo'yish lozim.

Beshinchidan, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashi vakolat doirasiga kirishi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son qarori bilan tasdiqlangan "Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risida"gi nizom 7, 21, 36-bandlariga asosan, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tegishli fuqarolar yig'ining iltimoslariga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashi tomonidan amalga oshiriladi. [8]

XULOSALAR

Bizning fikrimizcha, mahalliy kengashlar hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlar deyilganda, mahalliy kengashlar hamda shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlardagi, shaharchalardagi, qishloqlardagi hamda ovullardagi mahallalar fuqarolar yig'inlari o'rtasidagi munosabatlar tushuniladi.

Shu bilan birga, mahalliy kengashlar hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlarni ham shartli ravishda ikki xil munosabatlarga, ya'ni, mahalliy kengashlarning fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatidagi ishtiroki hamda o'z navbatida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mahalliy kengashlar faoliyatidagi ishtirokiga oid munosabatlarga ajratishimiz mumkin.

O'zbekistonda mahalliy mahalliy kengashlar hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi munosabatlarning siyosiy-huquqiy jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni ta'minlashi;
- fuqarolar yig'ini kengashi mahalliy kengash deputatlariga o'z faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashishi;
- fuqarolar yig'ini chaqirilishida mahalliy kengashlar tashabbusi majburiylik xususiyatiga egaligi;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xalq deputatlari Kengashi tomonidan hokim va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari taklif etilishi tavsiyaviy ekanligi;
- shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashi vakolat doirasiga kirishi.

Shuningdek, quyidagilarni nazarda tutadigan takliflar O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonun tegishli moddalariga kiritilishi maqsadga muvofiq:

- hokimning O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni ta'minlash vakolatini chiqarib tashlash hamda ushbu vakolatni faqatgina mahalliy kengashlarda qoldirish;

- xalq deputatlari Kengashi tomonidan hokim va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari vakillarining taklif etilgan holatda ishtirok etishi emas, balki ularning o'zlari ham xohish bildirganda ishtirok etishini ta'minlab beradigan siyosiy-huquqiy mexanizmni mustahkamlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023-yil 11-avgustda Buxoro viloyat xalq deputatlari kengashida bo'lib o'tgan yig'ilishidagi nutqi, <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/14/kengash/>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar, <https://lex.uz/docs/-5841063>.

3. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'RQ-350-son Qonun, 2013-yil 22-aprel, <https://lex.uz/docs/-2156899>.

4. Maxmudov A. O'zbekiston Respublikasida mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –T.: 2019.– B.92.

5. Адилходжаева. С.М. Работа с регионами – в приоритети функции Сената. – Т.: 2007. –С.80.

6. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi 913-XII-son Qonun, 1993-yil 2-sentabr, <https://lex.uz/ru/docs/-112170>.

7. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-860-son Qonuni, 2023-yil 8-avgust, <https://lex.uz/docs/-6561894>.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 48-son qarori bilan tasdiqlangan "Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risida"gi nizom, 2014-yil 4-mart, <https://lex.uz/docs/-2349371>